

Surxon tongi

2025-yil
8-yanvar
(chorshanba)
2-son
(17 935)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan

surxontongi.uz

t.me/surxontongi


NA OVORA, NA SARSON

INSON
QADRI

Yangi yilni yangi orzu va maqsadlar bilan kutib oldik. Katta marralarni ko'zlab, bu yo'lda bor kuch va salohiyatimizni ishga solish ishtiyoqi ila yashayotganimiz ham bor gap. Albatta, o'tgan yildagi islohotlar bu yilda yanada izchillik bilan davom etadi.

Barcha sohalarida o'zgarishlar, yangilanishlar kechayotgan bir paytda tibbiyotda ham yangi qadamlar tashlanib, aholi salomatligini saqlash maqsadida bor imkoniyatlardan foydalanilmoqda. Ana shunday imkoniyatlar, o'zgarishlar nasimi olis Boysun tumanida ham esayotir. Yangi yilda tuman ahlining uzoq yillardan buyon kutayotgan yana bir orzusi ushaldi. O'lis va tog'li hududda buyrak yetishmovchiligidan aziyat chekayotgan bemorlar endilikda shifo istab, viloyat markaziga borishmaydi, balki shu yerning o'zida

tashkil etilgan zamonaviy muassasada davolanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan ko'rinadiki, Prezidentimiz tashabbusi bilan sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning olis va chekka hududlarida ham o'z samarasini bermogda. Joylarda yangi tibbiyot muassasalari barpo etilib, mavjudlari tubdan ta'mirlanayotir. Zamonaviy usulda jihozlanib, bemorlarning o'z hududida zarur muolajalarni olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bunga chekka Boysun tumani tibbiyot birlashmasida yangi tashkil etilgan gemodializ bo'limi ham yaqqol misoldir.



Shu paytgacha tumanda buyrak yetishmovchiligidan aziyat chekayotgan bemorlar zarur muolaja olish uchun uzoq yo'l bosib, Termiz shahri, qo'shni viloyatlar markazi yoki poytaxtga borgan bo'lsa, yangi bo'limning ish boshlagani bu muammoga to'liq chek qo'ydi. Buning uchun tibbiyot muassasasi Germaniyada ishlab chiqarilgan uchta qon toksik, ya'ni zaharli moddalardan tozalash uskunasi bilan jihozlandi. Yangi yilda yuz bergan bu yangilik tuman aholisi, ayniqsa, buyrak yetishmovchiligi mavjud bemorlarning mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga ishonch hissini yanada

mustahkamladi. — Sog'ligingiz uchun-ku uzoq yo'l bosib, xarajat qilib, borib davolanasiz, — deydi Ismoil Rahimov. — Ammo vaqtigiz ketishi, sarsongarchiliklar, bundan tashqari, yaqinlaringizni sizdan hol-ahvol so'rab kelishlari ham ortiqcha ovoragarchilikdan boshqa narsa emas edi. Betob

holingizda davolanishni o'ylaysizmi yoki masalaning bu tomonlarini. Ayni paytda barcha qulayliklarga ega keng, shinam xonalarda 20 ga yaqin bemor sifatli tibbiy muolaja olib, davolanayotir. Ularga sohada yetarli tajribaga ega malakali shifokorlar xizmat ko'rsatmoqda.



BUGUNNING GAPI

MALAYZIYADA SINOVDAN O'TKAZILADI...

Oliy ta'lim tizimida xalqaro tajribalardan foydalanish kadrlar salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ham yurtimizdagi oliygohlarda dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan mustahkam hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Ana shunday hamkorlik aloqalarining davomi sifatida ayni kunlarda Malayziyaning Perlis universiteti (UniMAP) professor-o'qituvchilar jamoasi Termiz davlat universitetida bo'lib turibdi.



Mehmonlar universitetda maxsus seminar mashg'ulotlari hamda mahorat darslarini tashkil etishmoqda. Seminar davomida zamonaviy ta'lim metodikalari, xalqaro ilmiy hamkorlik istiqbollari, qo'shma ta'lim dasturi, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish hamda boshqa ilmiy-amaliy loyihalar xususida ma'lumotlar berildi. Shuningdek, ikki tomonlama hamkorlik doirasida Scopus bazasidagi yuqori impakt-faktorli jurnallarda hammualliflikda maqolalar chop etish, aniq fanlar doirasidagi dasturlarni yo'lga qo'yish bo'yicha fikr almashildi.

Muzokaralar davomida UniMAP universitetida Termiz davlat universiteti madaniyat markazini tashkil etish, talabalar o'rtasida onlayn muloqot platformasini yaratish va Malayziyaning Turizm, san'at va madaniyat vazirligi (MOTAC) grantlari doirasida TerDU talabarlari uchun "Til va madaniyat" dasturini ishlab chiqishga kelishib olindi.

Termiz davlat universiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion Ecogidrogel mahsuloti Malayziyaning tropik iqlim sharoitida tajriba-sinovdan o'tkaziladigan bo'ldi. Shuningdek, UniMAP professor-o'qituvchilari tomonidan joriy yilning aprel-may oylarida Termiz davlat universitetida dasturlash va kompyuter fanlari yo'nalishi bo'yicha kasbiy-texnik ta'lim dasturini amalga oshirish masalasi muhokama qilindi.

Dastur bitiruvchilariga Malayziya Malaka agentligi tomonidan tan olingan UniMAP sertifikatini taqdim etilishi, talabalarining global mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlab, xalqaro IT kompaniyalarida ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

ISLOHOTLAR AMALDA

TURISTLAR NIMANI YAXSHI KO'RADI?

Turistlarning 35-45 foizi tabiiy-ekologik xilmaxillikka boy, qishloq xo'jaligi qadimdan milliy an'anasida rivojlangan hududlarda dam olishni afzal ko'radi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, qishloq turizmini rivojlantirish agrar sektorning bir qismini ishlab chiqarish tarmog'idan xizmat ko'rsatish sohasiga o'tkazishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy dasturi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, qishloq turizmi doirasida bevosita ishlab chiqarish faoliyati ham amalga oshiriladi, shu asnoda turli xalq va badiiy hunarmandchilikni qayta tiklash va rivojlantirish, an'anaviy hunarmandchilik, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish muhim sanaladi.

So'nggi yillarda bu borada O'zbekistonda ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Aksariyat tog'li hududlarimiz va dam olish zonalarimiz asosan qishloq joylarda joylashgan. Shu bois, ichki turizm, ekoturizm, rekreatsion turizm va qishloq turizmini rivojlantirish orqali aholi salomatligini tiklash maqsadida tabiat qo'ynida sayohatlar tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada, har bir hududning turistik salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning resurslaridan maksimal foydalanish vazifasi qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va 2024-yil 12-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilingan.

Jahon tajribasini inobatga olib, mamlakatimizda olib borilayotgan turizm sohasidagi islohotlar natijasida Sariosiyo tumanidagi Sangardak qishlog'iga ilk bor "Turizm qishlog'i" maqomi berildi.

Bugungi kunda Sangardak turizm qishlog'ida zamonaviy 200 o'rinli sanatoriy va 50 o'rinli dam olish zonalarini, 26 ta oilaviy mehmon uylari, ravon yo'llar va o'nlab turistlarga xizmat ko'rsatish obyektlari faoliyat ko'rsatmoqda.


Yozning qoq chillasida Sangardak turizm qishlog'i turistlarning sevimli maskaniga aylangan bo'lib, go'zal va maftunkor tabiati, kengliklar bag'rida yastanib yotgan Hisor tog'lari, zilol suvlari va soylari, sokin mavjlanib oqayotgan Sangardak sharsharasi hududning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Ushbu ishlarning mantiqiy davomi sifatida 2024-yilda Boysun tumanidagi Omonxona, Denov tumanidagi Sina qishloqlariga ham "Turizm qishlog'i" maqomi berildi.

Boysun tumanida "Omonxona" va "Sayrob", "Temir darvoza", Uzun tumanida "Bobotog'", Oltinsoy tumanida "Vaxshivor", "Xo'jaipok", Termiz tumanida "Uchqizil", Denov tumanida "Sumbula", Sherobod tumanida "Chorboq'", "Qizil olma" turizm qishloqlarini tashkil etish, mazkur turizm qishloqlariga xorijiy va mahalliy turistlarni jalb qilish vazifasi qo'yildi.

Shu munosabat bilan viloyatning turizm salohiyatini oshirish, mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb etish maqsadida o'nga yaqin ommaviy ko'ngilochar tadbirlar tashkil etildi. Jumladan, Boysun qizil kanyonlarida "Havo sharlari festivali", Termiz shahri hamda Sariosiyo tumani "Sangardak" turizm qishlog'ida viloyatning turizm potensialini namoyish etishni ko'zda tutgan "Ichki turizm yarmarkasi", Navro'z umumxalq bayrami doirasida Paxlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan "Bahodirlar o'yini", Boysun tumanida "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali, shuningdek, Denov tumani, "Sina" qishlog'ida "Milliy taomlar festivali", Boysun tumanida "Olma sayli", Sherobod tumanida "Anor sayli" kabi ko'plab ommaviy ko'ngilochar turizm tadbirlari tashkil etildi.

Xulosa qilib aytganda, 2024-yil davomida viloyatimizga tashrif buyurgan 2,3 million mahalliy va 650 mingga yaqin xorijiy sayyohlarni ko'rib, viloyatimizda turizm sohasida amalga oshirilayotgan ishlar samara bermogda deyish mumkin.

Zebuniso ALIMARDONOVA, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Surxondaryo viloyati hududiy bo'linmasi rahbari, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



"OLATEMIR" DA MUAMMO YECHIM TOPDI

Bugun yurtimizda rivojlanishlar epkini esib, barcha jabhada o'zgarishlar, yangilanishlar kuzatilayotir. Chekka va olis hududlarda ham shahardagidek sharoit, imkoniyatlar yaratilayotgani mahalliy aholini quvontirayotgani bor gap.

Sho'rchi tumanidagi "Olatemir" mahallasi aholisini esa anachadan buyon toza ichimlik suvi muammosi qiynab kelayotgan edi. Ko'pning kengashi bilan ana shu muammoning ijobiy hal etilgani ayni muddao bo'ldi.

Xalqimizda: "Suv keltirgan elda aziz", maqoli bejiz aytilmagan. Qisqa fursatlarda aholiga toza ichimlik suvini yetkazib kelish, ularni obi hayot bilan ta'minlash borasida tashabbuskor, el koriga yaraydigan yurtdoshlarimizning borligi har bir olatemirlikni dildan quvontiradi.

Suv quvurlari tortilib, suv muammosi ijobiy hal etilganligi mahalla ahlining farovon va bahamjihat hayotiga ta'sir etmay qolmaydi. Buning ortidan fuqarolarning faolligi ortadi, yurt taqdiriga befarq bo'lmaganlar soni oshadi.

N.SHOYEVA

XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

SURXONDARYO VILOYATINING 2025-YILGI MAHALLIY BYUDJETINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 14-oktyabrda 01-1239/10-son hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrda 01/51-1-26811-sonli xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat kengashi

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, viloyat mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari 3 464,7 milliard so‘m va xarajatlari 5 527 milliard so‘mga ma‘lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 2 062,3 milliard so‘m miqdorida, shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar 247,9 milliard so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olingin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, 2025-yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi: — jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i; — yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq; — yig‘imlar (qonunchilikda respublika byudjetiga yo‘naltirilishi belgilangan yig‘imlardan tashqari); — jarimalar; — davlat bojlari; — qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950,3 450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushumlar; — davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushumlar; — qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar;

b) viloyatning viloyat byudjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lig‘icha o‘tkaziladi: — benzin, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste‘molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i; — alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) realizatsiyasi uchun aksiz solig‘i; — foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan

foйда solig‘idan tashqari); — elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; — davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan; — mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar; — mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar.

2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq to‘liq hajmda taqsimlansin; — boshqa tushumlar (a va b kichik bandlarda nazarda tutilgan tushumlardan tashqari barcha tushumlar); d) quyidagi soliq turlari shahar va tumanlar byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi: — jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i; — jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i; — mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i (Termiz shahri bundan mustasno); — yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i; — aylanmagan olinadigan soliq; — davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushadigan tushumlar; — qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq;

— suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno; — yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i; e) Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar (mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i bundan mustasno), soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat byudjetiga yo‘naltiriladi.

4. Quyidagilar: Viloyatning 2025-yilga rivojlantrishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda

2026-2027-yillarga mo‘ljallari 1-ilovaga;

— Viloyatning viloyat mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga; — viloyatning viloyat byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga;

— viloyat, shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlari 4-ilovaga; — Bunda, ajratma me‘yorlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Surxondaryo viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin;

— viloyat byudjetidan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Viloyatning viloyat byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 19 000,0 million so‘m etib hamda shahar va tumanlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

6. Viloyatning viloyat byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 26,0 milliard so‘m miqdorida belgilansin. Bunda: — shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2025-yil uchun zaxira jamg‘armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarning (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) kamida 1 foizi miqdorida shakllantirilsin;

— viloyat, shahar va tumanlar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini amaldagi Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotgand oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta‘minlansin.

QAROR QILADI:

7. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari — viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i Sh.Rajabovga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-299-son qaroriga asosan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarida ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi” xarajatlari uchun rejalashtirilgan mablag‘larni yil davomida haqiqatda shakllanadigan talabdan kelib chiqib, shahar va tumanlar o‘rtasida qayta taqsimlash vakolati berilsin.

8. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i Sh.Rajabov, viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta‘minlash choralarini ko‘rsin.

9. Barcha tuman va shahar hokimliklari, mas‘ul boshqarma va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas‘uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining to‘liq tushumini ta‘minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e‘tibor qaratilsin.

10. Viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

— soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish; — yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy to‘kazgan holda, soliqlarni

to‘liq hisoblanishini ta‘minlash hamda ushbu soliq to‘lovlar bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish; — aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish; — yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya‘ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Majburiy ijro byurosi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (A.Xalmuratov), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

12. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev), Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (Y.Nomozov) bilan birgalikda: — bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

— xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

13. “Amu-Surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (B.Alimov) va viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste‘mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste‘mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar

o‘tkazishga alohida e‘tibor qaralilsin.

14. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (T.Ismoilov), viloyat Adliya boshqarmasi (S.Abdurusulov) viloyatda byudjetga hisoblangan bo‘l, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

15. Viloyat hokimining o‘rinbosari — Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i F.Ismoilov, viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov), tuman (shahar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrda 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini belgilangan rejalarga muvofiq mahalliy byudjetlarga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

16. Xalq deputatlari hududiy Kengashlar hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 27- va 28-moddalarida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatilsin.

17. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjet nazoratiga qadar har yili 25-yanvar kungiga qadar byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflaniganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar: — o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish; — o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarning to‘g‘ri tuzilishi; — byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi; — tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi; — byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan

to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishini; — byudjet jarayonining ochiqligini ta‘minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma‘lumotlarni joylashtirib borilishini ta‘minlansinlar.

18. Viloyat Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi (F.Samatov) shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilsin.

19. Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (N.Samanov) byudjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

20. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i Sh.Rajabov bilan birgalikda viloyat tele radiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalarini, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma‘lumotlarni e‘lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

21. Ushbu qaror tegishli tahririyatlari va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsifa etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

23. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan kuchga kiradi. **Kengash raisi A.R.Choriyev** 2024-yil 27-dekabr, VII-3-016-8-0-K/24

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrda VII-3-016-8-K/24-son qaroriga 1-ilova

VILOYATNING 2025-YILGA RIVOJLANTRISHNING MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARI, PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI HAMDA 2026-2027-YILLARGA MO‘LJALLARI

T/r	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	2026-yil uchun mo‘ljal	2027-yil uchun mo‘ljal
1.	Yalpi hududiy mahsulot (trillion so‘m)	62,7	71,7	81,4
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘shish sur‘ati (foizda)	105,8	106,0	106,1
3.	Iste‘mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan (foizda)	108,0	107,0	106,0
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘shish sur‘ati (foizda)	106,9	107,0	107,2
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati (foizda)	103,9	104,1	104,3
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘shish sur‘ati (foizda)	110,5	110,7	111,0

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrda VII-3-016-8-K/24-son qaroriga 2-ilova

VILOYAT MAHALLIY BYUDJETI DAROMADLARINING 2025-YILGI ASOSIY PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI (ming so‘mda)

T/r	Daromad turlari	Jami
I.	Mahalliy soliq va tushumlar	1 770 632 050,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	121 819 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 037 335 780,0
3	Aksiz solig‘i jami	324 935 700,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	<i>alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)</i>	<i>1 943 700,0</i>
	<i>Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste‘molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i</i>	<i>322 992 000,0</i>
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	66 446 600,0
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	48 729 000,0
6	Davlat bojlari	56 773 100,0
7	Jarimalar	92 441 600,0
8	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan davlat byudjetiga ajratmalar	1 838 000,0
9	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	3 356 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 038 000,0
11	Yig‘imlar	13 919 270,0
II.	Respublika byudjetidan ajratilgan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	2 062 320 216,0
	<i>shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar</i>	<i>247 932 000,0</i>
	Daromadlar hammasi	3 832 952 266,0

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrda VII-3-016-8-K/24-son qaroriga 3-ilova

2025-YIL UCHUN VILOYATNING VILOYAT BYUDJETIDAN HUDUDIY BYUDJET MABLAG‘LARI TAQSIMLOVCHILARGA AJRATILADIGAN MABLAG‘LARNING CHEKLANGAN MIQDORLARI (ming so‘mda)

T/r	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	3 832 952 266
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 953 164 893
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	79 858 000
	Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar	748 299 566
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	51 629 807
1	Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi	299 079 846
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	299 079 846
	<i>shundan:</i>	
	“Yoshlik” sport markazi xarajatlari	451 935
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi	161 839 840
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	161 839 840
	<i>shundan:</i>	
	Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	882 563
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	Sog‘liqni saqlash boshqarmasi	1 671 469 519
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 613 999 519
	<i>shundan:</i>	
	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	3 675 574
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	2 322 028
	Sog‘liqni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	300 047
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	57 470 000
4	Madaniyat boshqarmasi	58 174 835
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	58 174 835
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi	4 531 899
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 531 899
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	Sport boshqarmasi	74 302 683

	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	74 302 683
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi	3 954 496
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 954 496
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi	15 548 029
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	15 548 029
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	63 047 423
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	63 047 423
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	126 631 181
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	119 631 181
	<i>shundan:</i>	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	37 400 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	7 000 000
11	Transport boshqarmasi	1 692 901
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 692 901
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi	34 034 143
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	34 034

(Davomi. Boshlanishi 2-sahifada.)

Table with 2 columns: Category (e.g., joriy xarajatlar, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi) and Amount (e.g., 1 634 405, 1 617 261).

Table with 2 columns: Category (e.g., 20 Hokimiyat, joriy xarajatlar) and Amount (e.g., 66 005 262, 50 617 262).

Table with 2 columns: Category (e.g., shundan, Qabul uylarini saqlash xarajatlari) and Amount (e.g., 7 530 997, 2 710 563).

Xalq deputatlari viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrda
VII-3-016-8-K/24-son qaroriga 4-ilova

Xalq deputatlari viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrda
VII-3-016-8-K/24-son qaroriga 5-ilova

2025-YILDA VILOYAT, SHAHAR VA TUMANLAR MAHALLIY BYUDJETLARIGA UMUMDAVLAT SOLIQLARI VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR, SHUNINGDEK, SOLIQ BO'LMAGAN TO'LOVLAR BO'YICHA BELGILANADIGAN ME'YORLAR

(foiz hisobida)

Large table with multiple columns: T/r, Hududlar nomi, Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, Foyda solig'i, Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari), Pivo, Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oziq-ovqat ishlatish uchun mo'ljallangan soliq, Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i.

VILOYAT MAHALLIY BYUDJETINING 2025-YIL DAROMADLARI VA XARAJATLARINING CHEGARAVIYI HAJMI

(ming so'mda)

Table with 5 columns: T/r, Hudud nomi, Mahalliy byudjetlarining jami daromadlari, Mahalliy byudjet daromadlari, Tartibga soluvchi transfert miqdori, Mahalliy byudjet xarajatlari.

*tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha transferlarni inobatga olinmagan holda

Table with multiple columns: T/r, Hududlar nomi, Qurilish materiallari bo'yicha yer qaridan foydalanilgan uchun soliq, Suv resurslaridan foydalanilgan uchun soliq, Davlat ulushi bo'yicha dividendlar, Davlat boji, Jarimalar, Yig'img'lar, Aylanmadan soliq, Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i, Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i, Yakkalik tartibidagi tadbirkorlar uchun qat'iy miqdordagi belgilangan soliq, Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari.

Izoh: 1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag'larini tuman va shaharlar hamda viloyat byudjeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi. 2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3 450 951 daromad kodi bo'yicha) tushgan pul mablag'larini tuman va shaharlar hamda viloyat byudjeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi. 3. Yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan barcha soliqlar (mol-mulki ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i (Termiz shahardan tashqari) bundan mustasno), soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko'zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat byudjetiga yo'naltiriladi.

MASSIVDA BARI BADASTUR

OBOD MANZILLAR

Jarqo'rg'on tumanidagi "Qorayontoq" mahallasi kundan kun chiroq ochib borayotgan manzil. Hudud infratuzilmasi yangidan bunyod etilayotgan ko'p qavatli turar joylar hisobiga yanada zamonaviy qiyofa kasb etayotir. Qo'li gul quruvchilarning mahorati ortidan qisqa fursatda qad rostlayotgan osmono'par binolarning ko'rinishi shaharning gavjimi mahallalarini eslatadi. Bir onda ham shahar ko'rinishini, ham qishloqning bahavo osudaligini tuyasan kishi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan 2022-2026-yillarda mazkur mahalla hududidagi 27 gektar yer maydonida jami 77 ta 5 va 9 qavatli 1 624 ta xonadondan iborat zamonaviy energotejamkor, barcha qulayliklarga ega uy-joylar, ijtimoiy soha obyektlari, ko'ngilochar maskanlar, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari qurilishi davom etmoqda.

qoplamasini yotqizish ishlarining 1-bosqichida 3,5 kilometr masofada ishlar to'liq yakunlangan bo'lsa, keyingi bosqichning yo'l qurilish ishlari qizg'in davom etmoqda. Bundan tashqari, "Yangi O'zbekiston" massivini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 2,2 kilometr ichimlik suvi tarmoqlarini tortish va bitta toza suv rezervuari (hajmi 1000 m³) qurish, oqava suv tizimi bilan ta'minlash maqsadida 3,41 kilometr oqava suv tarmog'i, bitta KNS (kanalizatsion nasos stansiyasi) va bitta oqava suv tozalash inshootini qurish belgilangan bo'lib, qurilishi yakunlangan uy-joylar uchun 2,2 kilometrlik, ya'ni 100 foiz hisobida ichimlik suv tarmog'i, 3,3 kilometr uzunlikda oqava suv tarmog'i yotqizish, ichimlik suv inshooti, oqava suv ko'tarish nasos stansiyasining qurilish ishlari to'liq yakunlangan. "Yangi O'zbekiston" massividagi bunyodkorlik ishlarining birinchi bosqichida umumiy qiymati

5,1 milliard so'mlik issiqlik ta'minoti qurilish ishlari "Discover invest" MCHJ tomonidan bajarilgan bo'lib, ikkinchi bosqichda umumiy qiymati 6,02 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari "Hojiakbar mega qurilish" MCHJ mutaxassislari tomonidan tugallanmoqda. "Yangi O'zbekiston" massivida loyiha qiymati 11,2 milliard so'mlik 330 o'rinni umumta'lim maktabi binosi, loyiha qiymati 6,6 milliard so'mlik bo'lgan 180 o'rinni maktabgacha ta'lim tashkiloti,

loyiha qiymati 1,7 milliard so'mlik 50 qatnovga mo'ljallangan oilaviy shifokorlik punkti foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, massivda aholiga qulaylik yaratish maqsadida loyiha qiymati 3,5 milliard so'mlik beshta mikromarkaz, loyiha qiymati 2,5 milliard so'mlik 3 ta savdo maishiy xizmat ko'rsati markazi, loyiha qiymati 6,5 mlrd so'mlik 400 o'rinni bitta o'quv markazi binosi hamda yangi mahalla fuqarolar yig'ini binosi foydalanishga topshirildi.

Xalq deputatlari viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrda
VII-3-016-8-K/24-son qaroriga 6-ilova

2025-YILDA VILOYAT, SHAHAR VA TUMANLAR MAHALLIY BHUDJETLARIGA YO'L QO'YILADIGAN ENG KAM MABLAG'LAR MIQDORI

(ming so'mda)

Table with 3 columns: T/r, Hudud nomi, Miqdor. Shows minimum budget amounts for various regions.

Bundan tashqari, "Yangi O'zbekiston" massiviga tutash hududdan "NEWGREENPARK" MCHJ tomonidan loyiha qiymati 16,5 milliard so'mlik sanoat zonasida maishiy xizmat ko'rsatish, muzlatgich omborxonasi, o'quv markaz, klinika, yirik universal va ixtisoslashtirilgan do'kon, supermarket, restoran, dehqon

va kiyim-kechak bozorlari qurilayotgani aholi uchun yanada manzur bo'layotir. SH.SHOKIROV, Jarqo'rg'on tumani hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari

YOZDAY: YOSHLIK

QAQROG'I, QAYNOG'I, CHANQOG'I BOR, FAROG'I-YU SABOG'I BOR

DOLZARB MAVZU

QAQROQ YERDAN QATALAB CHIQQAN... IMKONIYAT

O'tgan yil ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari bandligiga ko'maklashish, jumladan, "Yoshlar bandligi dasturi"ni amalga oshirish maqsadida viloyatda mavjud mahallalarda "fuqarobay" ish olib borildi. Yil boshida 9 918 nafar ishsiz yosh qayd etilgan bo'lsa, qisqa muddat ichida ularning bandligini ta'minlash maqsadida amaliy ko'mak berildi.

— 1 728 nafar yosh doimiy ish o'rinlariga ega bo'ldi, — deydi yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i Asliddin Xurramov. — Shuningdek, 1 733 nafar yosh kasb-hunarlariga o'qitilib, 826 nafariga subsidiya asosida mehnat qurollari berildi. 4 126 nafar yoshga dehqonchilik uchun ekin maydonlari berildi, 1 290 nafariga tadbirkorlik uchun kredit ajratildi, 215 nafari harbiy xizmatga yuborildi.

O'tgan yilda mehnat bozoriga kirib kelgan 18 365 nafar bitiruvchi yoshning bandligini ta'minlashga qaratilgan "Bitiruvchilar bandlik dasturi"ga asosan, bugungi kunga qadar 15 784 nafar bitiruvchi yoshning bandligi ta'minlandi. Bu foiz ko'rsatkichida 86 foiz deganidir.

— Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 14 326 nafar yoshga 230,4 milliard so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi, — deydi "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi viloyat filiali rahbari Otabek Abulqosimov. — Yer olish istagini bildirgan yoshlar ro'yxati shakllantirilib, "Mahalla yettilligi" tomonidan ijobiy xulosalar berilgan yoshlarga ajratilishi rejalashtirilgan 6 000 gektar yer maydonining 5 326 gektari, ya'ni 89 foizi 9 334 nafar yosh tomonidan e-**auksion.uz** elektron savdo platformasida yutib olindi.

Ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda 7 634 nafar yosh tomonidan 4 380 gektar yer maydonida 22,5 ming tonna mahsulot yetishtirilgan bo'lib, 132 milliard so'm daromad ko'rilgan. 6,3 ming tonna sabzavot, 10,9 tonna poliz ekinlari, 4,2 ming tonna don va dukkakli mahsulotlar, 657 tonna moyli ekinlar va 526 tonna bog'dorchilik mahsulotlarini yetishtirgan yoshlarning yer bilan tillaishishi zararga emas, balki mahsuldor va daromadli soha sifatida ish bermoqda.

— Mahallamiz yoshlar yetakchisining tavsiyasi bilan kredit olishim yengillashti, — deydi Jarqo'rg'on tumani, "Ismoiltepa" mahallasida yashovchi Rahmonqul Rajabov. — Mana qisqa muddatda qulupnay yetishtirib daromad qila boshladim. Aslida kredit olish va biznesni davom ettira bilish ham mahorat. 3 sotix yerdan million-million sof foyda ko'rish haqida gapirishsa, mubolag'aga yo'yishardi. Bugun o'zim misolimda aytadigan bo'lsam, haftasiga 20-25 kilogramm qulupnayni mahalliy bozorda yuz ming so'mdan sotib, biznesimizni ham ko'ngildagidek rivojlantirmoqdamiz.

Yoshlar yetakchisining o'z vaqtida ko'rsatgan ko'magi qatqalov va qaqroq yerga keltirilgan suvdek zarurat edi. Bu imkoniyatdan munosib va oqilona foydalana olgan Rahmonali singari qariyb sakkiz ming nafar yoshning tuproqdan topqani zar bo'ldi, ro'zg'orin bezar bo'ldi.

Zotan, olingan daromad hisobiga tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, o'qish va yashash sharoitlarini yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

JADALLIKNING QAYNOG'I O'LMAGAN

Davlat ko'magiga muhtoj "og'ir" toifadagi yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish maqsadida balansga kiritilgan 14-30 yoshdagi 697 ming nafar yosh uch toifaga ajratildi. Shundan 8 274 nafari "qizil", 302 664 nafari "sariq", 394 409 nafari "yashil" toifaga kiritilib, ular bilan individual ishlash tizimi joriy etildi. "Qizil" toifadagi 8 274 nafar yosh 343 nafar rahbarga o'rtaacha 25 nafardan nomma-nom birkirildi.

— Olib borilgan xatlov natijasida "og'ir" toifadagi 5 342 nafar yoshning muammosi mavjud ekanligi aniqlanib, bugungi kunga qadar barcha muammolar hal etildi, — deydi yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i Asliddin Xurramov. — Ularning 324 nafari hozirda doimiy ish o'rinlariga ega. 311 nafariga tadbirkorlik uchun kredit mablag'lari ajratilgan bo'lsa, 1 731 nafari ekin maydonlarida bozorgir mahsulotlar yetishtirishmoqda.

Shuningdek, 77 nafar tibbiy davolanishga muhtoj yoshning murojaati o'rganilib, ularga sog'ligini tiklashlari uchun amaliy ko'mak berildi. 300 nafar fuqaro esa o'zini o'zi band qilish istagini bildirgani bois ularga asbob-uskuna, ish qurollari uchun subsidiya mablag'lari ajratildi. Bu hali hammasi emas, kasb-hunar o'rganishni maqsad qilgan 169 nafar yosh o'zi tanlagan kasb-hunarga bepul o'qitilgan bo'lsa, 10 nafar yigitning safarbarlik chaqiruv rezervi badali qoplab berildi.

— 41 nafar yoshning shartnoma-to'lov puli to'lab berilib, ularning oliy ta'lim olishlariga sharoit yaratara olganimizdan mamnunmiz, — deydi yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i. — Qolaversa, 125 nafar yosh fan va chet tillariga o'qitildi. 141 nafar yosh shu davr mobaynida "qizil" toifadan chiqarildi.

Viloyatda toifalangan yoshlar bilan alohida suhbatlar asosida aniqlangan kamchiliklar zudlik bilan bartaraf etilishga kirishildi. Biroq tushunish kerakiki, mutasaddi tashkilot vakillari "oltin baliqcha" emas. Ular zimmasidagi vakolatidan ortiq vazifani uddalay olmaydilar. Siz so'rganlarning barchasini ham muhayyo qilish zamoning zavoli bo'lardi, xolos. Shunga qaramay, 59 nafar yoshga bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi, 123 nafariga oziq-ovqat, 14 nafariga kiyim-bosh olib berildi, 25 nafarining oila a'zolariga yordam ko'rsatildi, 5 nafarining uy-joyi ta'mirlandi, 1 887 nafarining turli ijtimoiy-iqtisodiy masalalari hal etildi.

Afsuski, arzirli vaj-korsonlar o'lda-jo'lda qolib, yozg'irishlar avjiga chiqqan pallada yashamoqdamiz, eshik qoqib, ko'mak berishni istagandan zarur nazarur narsalar tilaganlar ham yo'q emas. Asil ehtiyojmandlarni aniqlash esa bunday vaziyatda ishning ko'zini biladigan yoshlar yetakchisining mahoratidan so'zlaydi, xolos. Boqimandalik kayfiyati-yu birovning qo'lga qarashga moyillik yoshlarga "yuqub" qolmasin deya ularni chin ma'noda "uyg'otishga" chog'langan yetakchilar o'z vazifasini udda eta oldilar.

— "Yoshlar forumi - 2024" doirasida mahallalardagi yoshlar yetakchilari o'rtasida "Yilning eng namunali mahalla yoshlar yetakchisi" tanlovining respublika

bosqichi bo'lib o'tdi, — deydi Boysun tumanidagi "Obi" mahallasi yoshlar yetakchisi Nurali Jummayev. Ushbu tanlovda "Yoshlar balansi" tizimi asosida samarali ish tashkil etgan eng namunali yoshlar yetakchisi" sifatida meni e'tirof etishganidan, rosti, ancha payt hayajonlanib yurdim. Chunki hamkasblarim orasida fidoyilik bilan ish olib borayotgan yetakchilar talaygina edi. Bu yutuq nafaqat mening yutug'im, balki hududimda mas'uliyatni to'laonli his eta oladigan yoshlar bilan bahamjihat olib borgan ishlarimizning samarasi deya olaman.

TASHABBUSLAR MA'NAVYI CHANQOQNI BOSADI...MI?!

Viloyatimiz faqatgina "quloqli" yoshlarning yurti emas. Guruchning kurmagi singari yoshlar orasida chanqog'ini badxulqlik bilan bosuvchilar borligi ko'z yumib bo'lmas haqiqat. Yoshlar yetakchisi va birkirtilgan mas'ul rahbarlar "kafilligi" ostida xulq-atvori ijobiy tomonga o'zgarigan 405 nafar probatsiya hamda 531 nafar profilaktika nazoratida turuvchi yoshlar muddatidan oldin hisobdan chiqarildi. Shuningdek...

— Muntazam dars qoldiruvchi 520 nafar yosh ta'limga qaytarildi, — deydi yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi matbuot xizmati rahbari Nargiza Musayeva. — Giyohvand va psixotrop moddalarini iste'mol qiluvchi 11 nafar yoshning sog'lom turmush tarziga qaytarilishi esa maqtanarli natijadir.

Rosti, ba'zi natijalar misqolab jamg'ariladi. Kichik odimlar ham katta e'tirofqa sabab bo'lishi mumkin. Yoshlarning muammolari hal etilishi ortidan 334 ta notinch oilada muhit ijobiy tomonga o'zgarib, ajrim yoqasidagi 410 ta yosh oila yarashtirildiki, endi urush-janjallar yo'q, farzandlar barkamol va mehr og'ushida ulg'ayadi. Aslida mana shu barcha natijalar ilbizidir.

— Xorijiy migratsiyadan qaytgan 2 758 ta nafar yosh munosib ish o'rinlari bilan ta'minlandi, — deydi yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi matbuot xizmati rahbari. — Surunkali kasalligi mavjud yoshlarning 26 nafari davolatildi. Bu kabi amaliy ko'mak evaziga gazak otishi mumkin bo'lgan dardlar shifo topdi. Ihsizlik va musofirlikdan xoli, o'z oilasi bag'rida tong o'tirayotgan yoshlarning quvonchini ta'riflashga so'z yo'q aslida.

"Bekorchiilik barcha illatlarning doyasidir" degan qarash naqadar haq. Aslida bekor o'tgan lahzaning badalini to'lash mushkul. Shu bois yoshlarning bo'sh vaqti — yetakchining ish vaqtiga aylanishi lozim. Yo'qsa, yil davomida erishilgan natijalar o'zini oqlamagan bo'lardi. Agressiv xulqli yoshlarning 318 nafari hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarga ruju qo'yg'an 28 nafar yoshlarning bandligi ta'minlanishi fikrimiz dalili bo'lish bilan birga ularning mashg'ulligi ortidan otanasi totayotgan huzurning gashitini-da biz ta'rif eta olmadik.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijdagi vohadoshlarimizning asosiy qismini Sho'rchi, Denov, Bandixon, Boysun, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Oltinsoy va Sherobod tumanlari yoshlari tashkil etmoqda. Shuningdek, yoshlarning 25 524 nafari ishlash, 674 nafari o'qish, 24 nafari yashash hamda 28 nafari



g'olib va sovrindor bo'lgan jami 91 ta mahallada sport maydonchalari qurilishiga erishilganligi maqtanarli natija. Olimpiada doirasida tashkil etilgan ommaviy sport musobaqalarining yakuni bo'yicha viloyatimiz jami 31 ta, shundan 14 ta oltin, 11 ta kumush hamda 6 ta bronza medallarini qo'lga kiritishdi.

— O'zbekiston chempioni bo'lganim buyon meni o'yantiradigan masala chempionat va tanlovlar ko'p bo'lishi, ularda yoshlar o'z mahoratini namoyish etishi uchun sharoit yaratish edi, — deydi Sho'rchi tumani, "Yoshg'ayrat" mahallasida istiqomat qiluvchi Mohichehra Xursanova. — Bu yilgi "Besh tashabbus olimpiadasi"ning stritbol yo'nalishi bo'yicha respublikada g'olib bo'lganimiz esa bizning hududimizda sport maydonchasi qurilishiga imkon berayotgani quvonchli. Aslida hozirda ikki yosh toifasida to'garaklarimiz faoliyat olib

davolanish va boshqa sabablarga ko'ra xorijda bo'lib turibdi. Ihsiz va xorijiy mehnat migratsiyasidan qaytayotgan 3 307 nafar yoshlar bandligi yil davomida to'liq ta'minlandi.

YUTUQLARNING GASHTI-YU FAROG'I BOR

Maktabning serzavq onlari yakunlangach, hayotning o'z sinalmalari to'kislig-u to'siqlar bilan siylashni boshlaydi. Shunday kez ko'ngil yozar mashg'ulotga ehtiyoj yanada yuqorilaydi. Ish bilan mashg'ul, ro'zg'orning o'zini to'ldirishga mahkum kezlaring esa yoshlik shiddat bilan o'tib ketayotgan bo'ladi. Biroq faollik har onda zarurat. Xoh u jismoniy bo'lsin, xoh ma'naviy...

Mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ezgu tashabbus start olgandi. Bu tashabbuslar esa, o'z navbatida, yangi imkoniyatlar debochasidir. "Besh tashabbus olimpiadasi"da ishtirok etish yoshlarni jipslashtirish bilan birga, yurt taqdiriga daxldorlik hissini ham shakllantirdi deya olaman. Zotan, g'oliblar o'z kichik vatanlariga zarur sharoit yaratish imkonini qo'lga kiritayotir. O'tgan yilda 654 ming nafar, 2023-yilgidan qariyb 130 ming nafar ko'p yosh olimpiadada ishtirok etish istagini bildirgani esa qamrovning oshib borayotganidan dalolat.

— Gimnastrada sport musobaqasida 15 963 nafar, paraolimpiada sport musobaqasida 3 332 nafar, qo'l to'pi bahslarida 76 684 nafar havaskor yoshlar o'zaro bahslashdilar, — deydi yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi matbuot xizmati rahbari Nargiza Musayeva. — Viloyatda faqatgina iqtidorlar sinovdan o'tkazilibgina qolmay, iste'dodlar ham o'zaro mahoratlarini namoyish etishib, qizg'in bellashdilar. "Yoshlar ovozi" tanlovida 28 092 nafar, "Yosh musavvir" tanlovida 44 157 nafar, "Kibersport" sport musobaqasida 25 048 nafar, "Yosh kitobxon" tanlovida 53 880 nafar, "Zakovat" tanlovida 25 561 nafar, "Ibrat chet tillari" tanlovida 17 846 nafar yoshning ishtiroki fikrimiz isbotidir.

Viloyatning har bir mahallasida olib borilgan keng qamrovli ishlar samarasi o'laroq, yoshlarning qiziqishlari mukammal o'rganildi deya olaman. Shuning ortidan "Payvandlash ustasi" tanlovida 3 741 nafar, "Novvoychilik" tanlovida 2 033 nafar, "Yosh qurovchi" tanlovida 3 864 nafar, "Dizaynerlik" tanlovida 8 758 nafar hamda "Elektromontaj ustasi" tanlovida 2 014 nafar yoshning ishtiroki esa kasb-hunarga o'qitish tizimining samarasini izohlay oladi.

— "Besh tashabbus olimpiadasi"ning o'tgan mavsumida g'olib bo'lgan yoshlar mahallalarida 34 ta sport maydonchasi qurilib, foydalanishga topshirildi, — deydi yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i Asliddin Xurramov. — 17 ta universal, 6 ta stritbol va vorkaut hamda 11 ta vorkaut sport maydonchasida yoshlar sevimli sport turlari bilan mashg'ul ekanliklari va aynan ushbu mahallalarda yashovchi yoshlarning tanlovlarda ishtirok etish ko'rsatkichi yuqorilganligi esa "Sport va san'at birlashtiradi" degan fikrga yorqin misol bo'la oladi.

Bugungi kunga qadar, "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalarining respublika bosqichida

bormoqda. Qizirlarim juda faol va bu kabi yutuqlar ularni yanada ruhlantirmoqda.

Shuningdek, "Yoshlar ovozi" Bo'zator Feshtanlovining respublika bosqichida viloyatimizdan uchta yosh toifasida ishtirok etgan 11 nafar yoshdan 6 nafari faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritishdi. Har ikki yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan tanlovning auditoriyasi kengayib bormoqda. Yoshlarning qiziqish va intilishlarini inobatga olgan holda mahallalarda 2 499 ta to'garaklar tashkil etilgan. 47 481 nafar yosh esa mazkur to'garaklarda o'z iste'dodlarini sayqallamoqda, ustoz etagidan tutib, har maqomga yo'rg'alashdan ko'ra aydarli natijalarga erishmoqda. Xususan, boysunlik Farrux Nuraliyev 2022-yilda Bo'zator Feshta 3-pog'onani zabt etgan bo'lsa, ikki yillik tadorik, o'z ustida ishlash hamda ustozlar motivatsiyasi va tavsiyalari ortidan natijalar yaxshilandi. 2024-yilgi tanlovda Farrux faxrli 2-o'rinni egalladi.

YOSHLIKNING TOSHGA O'YILAR SABOG'I BOR

Iqtidorli yoshlarni izlab topish, iste'dodini ro'yobga chiqarish va ularni qo'llab-quvvatlashga ko'maklashish borasida qilinayotgan ishlar tashxis sazovor. Birgina "Ibrat farzandlari" loyihasi doirasida viloyatdagi 150 ming nafarga yaqin yoshlar Youtube platformasi orqali 20 ga yaqin xorijiy tillarni bepul o'rganmoqda. Albatta, ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanish ko'nikmasini shakllantirgan mazkur loyihaning samarasi yaqqol ko'rina boshlangan.

— Men "Ibrat farzandlari" platformasi orqali turk tilini o'rganmoqdaman, — deydi termizlik Sohiba Jo'rayeva. — Birinchidan, darslar juda yaxshi tashkilatirilgan, ikkinchidan, istalgan vaqtningizda o'rganishga qulay. Faqat qunt va o'rganish istagi bo'lsa kifoya. Turk tili saboqlaridan so'ng, albatta, shu platform orqali arab tilini ham o'rganish niyatim bor.

"Ustoz AI" loyihasi doirasida 32 ming nafar, "Mutolaa" loyihasi doirasida 65 ming nafar yosh qamrab olindi. Shuningdek, "UzChess" loyihasi doirasida 15 ming nafar yoshlar onlayn tarzda shaxmat bilan shug'ullanib kelmoqda.

— Viloyatdagi sport maktablarida tashkil etilgan 107 ta shaxmat guruhlarida 35 nafar malakali trenerlar 1 149 nafar shaxmat sport turi bilan muntazam shug'ullanuvchi iqtidorli yosh sportchilarga shaxmat bo'yicha mashg'ulotlarni o'tib kelishmoqda, deydi yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi matbuot xizmati rahbari Nargiza Musayeva. — Bundan tashqari, viloyatda shaxmatni rivojlantirish hamda ommalashtirish maqsadida haftaning har juma va shanba kuni Termiz shahridagi "Yoshlar markazi"da shaxmatning "Rokirovka" yo'nalishi bo'yicha musobaqalar tashkil etib kelinmoqda.

Darhaqiqat, imkoniyatlar diyorida tug'ilish ham baxt. Iqtidorsiz bola bo'lmaydi, uni payqamoydigan muhit bo'ladi. Shunday ekan, zarracha iqtidorning e'tirof etuvchi shunday yurtda yashash bir karra baxt bo'lsa, sening yoshlik davringda qulay sharoit va iste'dod-u iqtidorning namoyish etish imkoniyatini yaratgan davlatdan faxrlanish esa ikki karra saodatdir.

Xurshid KARSHIYEV

<p>SURXON TONGI va ЗАРЯ СУРХАНА gazetalari tahririyati</p>	<p>MUASSISLAR: Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi</p>	<p>TAHRIR HAY'ATI Jo'rabek TO'RAYEV (hay at'orasi) Abduraim CHORIYEV, Muhiddin ABDURAHMONOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV</p>	<p><i>Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.</i></p>	<p>BOSH MUHARRIR Salohiddin NORQOBILOV</p> <p>MAS'UL MUHARRIR Sayyora ALLAYEVA</p> <p>NAVATCHI MUHARRIR Adolat MO'MINOVA</p> <p>SAHIFALOVCHI-DIZAYNER Dildora VOHIDOVA</p>	<p><i>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</i></p> <p>Reklama va marketing xizmati: 76 224-23-85</p> <p>TELEFONLAR: 76 224-23-80, 76 224-22-88</p>	<p>Qog'oz bichimi A-2, 2 bosma taboq Nashr indeksi: 6 500 Bosishga topshirildi—09:00 Bosildi—11:00 Adadi 1450 nusxa. Buyurtma Γ-</p>	<p>MANZILIMIZ: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p> <p>BOSMAXONA MANZILI: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p>	<p>Gazeta "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi.</p>
	<p>Xurshid KARSHIYEV</p>							